



DUNYOVİY DAVLAT – TINCHLIK VA TOTUVLİK KAFOLATI

Saifnazarov Ismoil
 falsafa fanlari doktori, professor
 Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi, milliy qadriyatlarimiz, adolatli fuqarolik jamiyati, demokratik huquqiy davlat qurish, konstitutsiyamizning bosh yo'nalishi - insonni va uning hayotini ulug'lash ekanligini, inson va uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati hamda boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi yoritilgan.

Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartishlarda xalq farovonligini oshirish va turmushini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi mavqeい mustahkamlaydi. Bu Asosiy qonunga davlatning nafaqat teng huquqlar, balki teng imkoniyatlarni ta'minlash, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, munosib turmush sharoitini yaratish, davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha vazifalarini strategik tarzda kiritishni anglatadi. Yangilangan Konstitutsiyani ishlab chiqishda O'zbekiston fuqarolarining misli ko'rilmagan faolligi, O'zbekiston o'zining yangi Konstitutsiyasida ijtimoiy davlat sifatida belgilanib, kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g'amxo'rlik davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylanganini ham ko'rish mumkin.

Muallif yangilangan Konstitutsiya xalqparvar davlat qurish maqsadida kuchli parlament, ixcham va mas'uliyatli hukumat, mustaqil va adolatli sud tizimini shakllantirishga qaratilgani, Prezidentning ayrim vakolatlari parlamentga o'tkazilgani, Oliy Majlisning quyisi va yuqori palatalarining vakolatlari sezilarli darajada kengaytirilgani va boshqa muhim o'zgartishlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini batasfil bayon qilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, referendum, shaxs, umumxalq, dunyoviy davlat, vijdon erkinligi, qonun ustuvorligi

СВЕТСКОЕ ГОСУДАРСТВО - ЗАЛОГ МИРА И СПОКОЙСТВИЯ

Саифназаров Исмоил
 доктор философских наук, профессор
 Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация: В данной статье рассматривается принятие Конституции независимого Узбекистана, наши национальные ценности, построение справедливого гражданского общества, демократического правового государства. Основным направлением нашей Конституции является прославление человека и его жизни, свободы, чести, достоинства и других неприкосновенных прав, которые считаются высшей ценностью.





В поправках к Конституции особое внимание уделено повышению благосостояния и благополучия народа, укреплению позиций Узбекистана как социального государства. Это означает стратегическое включение в Основной закон задач государства по обеспечению не только равных прав, но и равных возможностей, смягчению социального неравенства в обществе, созданию достойных условий жизни, усилению социальной ответственности государства перед гражданами. Беспрецедентная активность граждан республики в разработке обновленной Конституции также свидетельствует о том, что, определив Узбекистан в своей новой Конституции как социальное государство, важными направлениями государственной политики стали сильная социальная защита и забота о нуждающихся.

Автор подробно описывает содержание и значение обновленной Конституции, направленной на формирование сильного парламента, компактного и ответственного правительства, независимой и справедливой судебной системы с целью построения народно-демократического государства, передачу парламенту некоторых полномочий президента, значительное расширение полномочий нижней и верхней палат Олий Мажлиса и других важных изменений.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, референдум, личность, народ, светское государство, свобода совести, верховенство закона

SECULAR STATE-PLEDGE OF PEACE AND TRANQUILITY

Saifnazarov Ismoil

Doctor of philosophical sciences, professor
Tashkent State University of Economics

Abstract: This article states that the adoption of the Constitution of Independent Uzbekistan, our national values, a just civil society, building a democratic state governed by the rule of law, the main direction of our Constitution is to glorify man and his life. Its life, liberty, honor, dignity and other inalienable rights are devoted to illuminating the highest value.

The amendments to the Constitution pay special attention to improving the welfare and well-being of the people, strengthening the position of Uzbekistan as a social state. This means the strategic inclusion in the Basic Law of the tasks of the state to ensure not only equal rights, but also equal opportunities, mitigate social inequality in society, create decent living conditions, and strengthen the social responsibility of the state to citizens. The unprecedented activity of Uzbek citizens in drafting the updated constitution also indicates that, having defined Uzbekistan in its new constitution as a welfare state, strong social protection and care for those in need have become important areas of State policy.

The author describes in detail the content and significance of the updated Constitution aimed at forming a strong parliament, a compact and responsible government, an independent and fair judicial system in order to build a people's democratic state, transferring some presidential powers to parliament, significantly expanding the powers of the lower and upper chambers of the Oliy Majlis and other important changes.

Keywords: New Uzbekistan, referendum, personality, people, secular state, freedom of conscience, rule of law





KIRISH

2023 yil 30 aprel kuni yurtimizda muhim siyosiy jarayon-yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi bo'yicha o'tkazilgan referendumda xalqimiz o'z kelajagi, mamlakatimiz ertasi uchun ovoz berdi. Umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan Yangi Konstitutsiyamiz jamiyatimiz hayotining barcha yo'nalishlarini kompleks tartibga solishga, mamlakatimizni demokratik rivojlantirish yo'lida eng muhim huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Yangilangan Konstitutsiyaning birinchi moddasida O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb, qat'iy belgilab qo'yilgani tarixiy ahamiyatga ega. Xalqimizning xohish-irodasi bilan Asosiy qonunda muhrlangan bu prinsiplar – mamlakatimizning taraqqiyot yo'li va taqdirini, uning kelajagini belgilab bergen ushbu "beshta ustun" hech qachon o'zgartirilmaydi. Zero, bu tamoyillar faqat va faqat xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini himoya qilishni, tengsiz va buyuk ne'mat – mustaqilligimizni asrabavaylash, uni yanada mustahkamlash va kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishni ko'zlaydi.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga "dunyoviy davlat" tushunchasi kiritildi. Konstitutsiyada belgilangan ushbu normani hayotga to'la tatbiq etish jamiyatda vijdon erkinligini, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini samarali ta'minlashga hamda barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Dunyoviy davlat-davlat hokimiyyati va boshqaruvsdan din ajratilgan, boshqaruv diniy qoidalar bilan emas, balki fuqarolik qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadigan, qarorlar qabul qilishda diniy asoslarga tayanilmaydigan davlatadir. Shuningdek, hech qanday din va mafkura davlatning majburlov kuchi bilan o'rnatilmasligini, ularning davlatdan ayri ekanligini tavsiflaydi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, dunyoviy davlatda din davlatdan va siyosatdan ajratilsada, jamiyatdan ajratilmaydi. Eng muhimi, dunyoviy davlat barcha dinlar uchun teng sharoitlar yaratib berish, fuqarolarga ta'lim olish, shaxsiy rivojlanish yo'lini mustaqil tanlash imkoniyatini yaratish hamda ilm-fan va madaniy taraqqiyotda ijodiy erkinlikni ta'minlashni ko'zda tutadi. Dunyoviy davlatda ta'lim jamiyatga shaxsni shakllantirib beradi. Bu shaxs davlat olib borayotgan islohotlar jarayonlaridan xabardor, hamqadam va faol bo'ladı, davlatga tayanch va tirkak bo'ladı, shu tufayli jamiyat taraqqiy etadi.

Dunyoviy davlat ijtimoiy hayotida diniy e'tiqodlar muhim o'rin tutadi. Chunki diniy qadriyatlar O'zbekiston xalqining ijtimoiy ongi, shu jumladan madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlari, odob-axloqining shakllanishi hamda ularning avloddan avlodga meros bo'lib o'tishiga xizmat qilib kelmoqda. Diniy e'tiqodlar va diniy bag'rikenglik, dinlarning asl insonparvarlik mohiyati jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslaridan biri bo'lib, O'zbekiston xalqini birlashtiruvchi va yakdilligiga



xizmat qiluvchi, oilalarda o‘zaro mehr-oqibatni mustahkamlovchi asriy qadriyatlar manbaidir. Dunyoning ko‘pchilik davlatlari, xususan, rivojlangan mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, din dunyoviy davlat tuzumi bilan nafaqat murosa qilishi, balki umummilliy yuksalish yo‘lida u bilan samarali hamkorlik qilishi mumkin.

Ammo, dinning qurilayotgan Yangi O‘zbekiston ijtimoiy hayotidagi o‘rni eng avvalo, uning konstitutsiyaviy maqomi bilan belgilanadi. O‘zbekiston konstitutsiyasiga muvofiq, barcha fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlangan. Har bir insonga xohlagan dinga e’tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqi berilgan. Diniy tashkilotlar va birlashmalarning davlatdan ajratilgani hamda ularning qonun oldida tengligi belgilab qo‘yilgan.

Ijtimoiy hayotimizdachi? Afsuski, ko‘p hollarda ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p guvohi bo‘lib qolayapmiz, ba’zi hurmatli "qori" akalarimiz, yoshlar ochiqdan-ochiq, bilib-bilmay davlat ishlariga aralashib qolishayapti. "Roddom" larda erkak kishining doyalik qilishi shariatga to‘g‘ri kelmasligi, banklardan foizli kredit olish haromligi, do‘konlarda sotilayotgan ayrim mahsulotlar shar’iy emasligi haqida va’z sotib, odamlarni chalg‘itishga, ongini zaharlashga urinishayapti. Hammamiz yaxshi bilamiz, keyingi yillarda haj, umra ziyyoratlariga keng yo‘l ochilyapti. Minglab yurtdoshlarimiz diniy ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. Ammo hajga, umraga borib kelgan ayrim yurtdoshlarimiz ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lishi, odamlarni yaxshilikka boshlash o‘rniga ziyyarat bahona o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, manmanlikka berilish kabi illatlarga yo‘l ochib berishayapti.

Yana bir masalaga e’tiborni qaratmoqchiman. Statistika agentligi bergen xabarga ko‘ra, O‘zbekistonda nikohni qonuniy rasmiylashtirish pandemiya davridagi tushib ketibdi. Ajralish va tug‘ilish soni esa bir necha barobarga ortganligi aytيلayotgan ushbu hisobotni juda tashvishli diniy targ‘ibot natijasi sifatida baholash mumkin. Internetdagи ikki yoki undan ortiq xotinga uylanish targ‘iboti sabab, qonuniy er-xotinlikdan ko‘ra “sha’riy juftlik” munosabati avj olgan. O‘z navbatida majburiy ijro organlarida 400 mingdan ortiq aliment undirishga qaratilgan ijro hujjatlari mavjud ekan. Bu umumiy hisobda millionlab bolalalarning alimentga kuni qolganligini anglatadi.

Aholining, ayniqsa xotin-qizlarning huquqiy savodxonligi yo‘qligi, o‘z haq-huquqlarini bilmasliklari oqibatida, qonuniy nikohlar kamayib, sha’riy nikohlar ko‘payib, yetim bolalar soni oshib bormoqda. Qonunchilik targ‘iboti sustlashib, hay barakallachilik kuchayishiga qachongacha panja ortidan qaraymiz? Oila, onalik va bolalikka ma’sul tashkilotlarchi? Qachongacha soxta "da‘vatchi"larning, soxta mullalarning tegirmoniga suv quyamiz? Hatto chalasavod mullalar tufayli jamiyatda xotin-qizlar o‘qishi shart emas, u uy bekasi bo‘lishi yetarli, degan noto‘g‘ri qarash shakllanayapti. Bu davlatni qoloqlik botqog‘iga botirmaydimi? Ko‘pxotinlikka yo‘l qo‘ymaslik, uni targ‘ib qilishni cheklashning huquqiy asoslari yaratildi, jamiyatda



shakllangan va amaldagi qonunchilikka asoslangan an'anaviy nikoh munosabatlarini, milliy qadriyatlar va udumlarni qo'llab-quvvatlash vaqtি keldi, deb o'ylayman. Yaqin kelajakda, 40 million aholiga yetadigan davlatimizni faqat dunyoviy ilm qutqaradi. Radikal va mutaasiblarning bir tomonlama qarashlari bilan murosa qilolmaymiz. Faqat dunyoviy ta'limga asoslangan bilimlar bilangina taraqqiyotga erishamiz. Farzandlarimiz bugun kimyo, fizika, matematika kabi aniq fanlar, tarix, geografiya kabi gumanitar fanlarning chuqur bilimdoniga aylanishi shart. Bizningcha, maktab muallimining asosiy vazifasi o'quvchilarda fikrlash san'atining uyg'onishiga erishish bo'lmog'i darkor. Aks holda yoshlarimiz johillar tuzog'iga ilinib qolaveradi. Ochig'i shuki, fikrlamaydigan bola katta bo'lsa, o'z yo'li va maqsadiga erishishi qiyin kechadi. Sababi, fikr - inson botiniy (ichki) qiyofasi aks etgan ko'zgu hisoblanadi. Fikrsizlik - madaniyat kushandas, ma'naviy o'lim! Fikri yo'q odamning qiyofasi ham bo'lmaydi, deydilar. Fikr yo'q joyda olomonlik va johillik ko'payadi. Bu fikrimizga dunyoda bo'lib o'tayotgan favqulodda holatlar guvohlik beradi. Biz dunyoviy davlatda yashayapmiz. Shu bilan bir vaqtida masalaning ikkinchi tomoniga ham katta ahamiyat berishimiz kerak. Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartishni maqsad qilib qo'yuvchi respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi kuchlar ham yo'q emas. Biroq ijtimoiy tarmoqlarda ayrim noqonuniy diniy tashkilotlarning vakillari ochiqdan-ochiq Konstitutsion tuzumga zid bayonotlar bilan chiqayotgani, ularning yo'liga to'siq qo'yilmayotgani ham bor gap.

Dunyoviy jamiyat qurish yo'lida borayotgan mamlakatimizda davlatning din bilan munosabatlari mazmuni va mohiyatini belgilovchi asosiy tamoyillar qatoriga dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish, diniy e'tiqodlarini fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish, diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik, ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati, dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmashagini e'tirof etish tamoyillari qayd etilgan. Ya'ni sof diniy ehtiyojlarni qondirishdan tashqarida bo'lgan har qanday g'arazga erishish yo'lida diniy omildan foydalanishga intilish qat'ian man etiladi. Demak, davlatimizning dinga nisbatan munosabati qandaydir konyuktur yoki muvaqqat taktik mulohazalar bilan belgilanmaydi, balki dinning ijtimoiy hayotdagi muhim omilligi idroki va e'tirofiga tayanadi. Aytmoqchi bo'lganimiz, davlat dinning O'zbekiston fuqarosini tarbiyalashdagi katta imkoniyatlariga ishonadi. Ammo hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq



bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Davlatimiz rahbari 2023 yil 8 may kuni Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan referendum yakunlariga bag‘ishlangan uchrashuvda bu masalaga to‘xtalib, bu borada aniq va xolis pozitsiyasini bildirdi. "O‘zbekiston – dunyoviy davlat va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Xalqimizning referendum orqali bildirgan xohish-irodasi, qat’iy tanlovi ham shu!" - dedi Prezidentimiz. Bundan buyon ham millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar har bir fuqaroning vijdon erkinligi ta’minlanishi; barcha diniy konfessiyalar erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishi; mamlakatimizda millatlar va konfessiyalar o‘rtasida totuvlik va hamjihatlikni ta’minalash siyosati izchil davom ettirilishi ta’kidlandi. Jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga hech qachon yo‘l qo‘yilmaydi.

XULOSA

Bir so‘z bilan aytganda, dunyoviy davlat prinsiplariga amal qilmaslik uning aholi o‘rtasida turlicha tushunilishiga, ekstremistik qarashlarning tarqalishiga, dunyoviy davlat prinsiplari va asoslarining buzib talqin qilinishiga, jamiyatda ziddiyatli vaziyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ilm-fan va texnologik yutuqlar chuqur o‘zlashtirilmasligi, farzandlarimizni faqat madrasalarga berish bilan ovora bo‘lmay, ularni zamonaviy ilm-fan sirlarini o‘zlashtirishga, yuksak texnologiyalarni o‘zlashtirishga safarbar qilmasak, zamon bilan hamqadam bo‘lmasak, mamlakatimizning global raqobat maydonida munosib o‘rin egallashi bo‘yicha vazifalarni murakkablashtirishga xizmat qilgan bo‘lamiz. Demakki, mamlakatimiz yangilangan Konstitutsiyada dunyoviy davlat deb e’lon qilingan ekan, bunday davlatni shakllantirish mamlakatimizning tinch - totuv va farovon hayotini ta’minalashiga ishonchimiz komil.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi //Xalq so‘zi, 2022 yil 21 dekabr, № 272.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangilangan Konstitutsiyamiz Uchinchi renessansni barpo etish yo‘lida mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi //Xalq so‘zi, gazetasi 2023 yil 9 may, № 94.
3. A. Saidov. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya – inson sha’ni, qadr-qimmati va huquqlarining mustahkam kafolati. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m11846> 24.11.2023.
4. Poyanov Olim, & Maqsudova Gulbahor (2021). Konstitutsiya – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar poydevori. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (Special Issue 3), 214-218.
5. Islomov B. Yangi tahrirdagi konstitutsiya – huquqlarimizning mustahkam kafolati //Yangi O‘zbekiston, gazetasi 7 aprel 2023 yil soni

